

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES | RESPUBLIKA KO'P TARMOQLI ILMYIY KONFERENSIYA

# YANGI O'ZBEKISTON: 2023

CONFERENCES.UZ

INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

DAVRIYLIGI: 2018-2023

DUNYO TARIXIDA KOSMOSGA  
UCHGAN BIRINCHI INSON



*Дуню Тарафиди*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORVIY OLIY TA'LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR, MAGISTRANTLAR VA IJTIDORLI TALABALAR

TOSHKENT SHAHAR, AMIR  
TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.

+998 97 420 88 81  
+998 94 404 00 00

WWW.TAQIQOT.UZ  
WWW.CONFERENCES.UZ



OKTYABR  
№57

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:  
ИННОВАЦИЯ, ФАН  
ВА ТАЪЛИМ  
2-ҚИСМ**

---

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:  
ИННОВАЦИИ, НАУКА  
И ОБРАЗОВАНИЕ  
ЧАСТЬ-2**

---

**NEW UZBEKISTAN:  
INNOVATION, SCIENCE  
AND EDUCATION  
PART-2**

**ТОШКЕНТ-2023**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 57-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 октябрь 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 17 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттита устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофик:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

#### **1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

#### **2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

#### **3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

#### **4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

#### **5. Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

#### **6. Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

#### **7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Муסיқа ва ҳаёт**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

**23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Хамидович «ТИИМСХ»

**24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

**25. География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

---

*Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ФАЛСАФА ВА ҲАЁТ СОҲАСИДАГИ ҚАРАШЛАР**

1. Насруллаева Мохигуль Сухробовна «ИДЕЯ СВЕРХЧЕЛОВЕКА В ФИЛОСОФИИ НИЦШЕ» .....	7
<b>2. Maksetova M.K, Hojametova J.J</b> SH.S.PIRSTIN SEMIOTIKA PANINIŇ RAWAJLANIWINA QOSQAN ÚLESİ.....	9
<b>3. Abrorxon Asatulloev</b> ABDULLA AVLONIYNING “TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ” ASARINING QIYOSIY TAHLILI .....	11
<b>4. Abrorxon Asatulloev</b> YANGI O‘ZBEKISTON VA UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISHDA ABDURAHMON TOSHKANDIY VA ABDULLA AVLONIY AXLOQIY QARASHLARINING AHAMIYATI .....	14



## ФАЛСАФА ВА ҲАЁТ СОҲАСИДАГИ ҚАРАШЛАР

### «ИДЕЯ СВЕРХЧЕЛОВЕКА В ФИЛОСОФИИ НИЦШЕ»

**Насруллаева Мохигуль Сухробовна,**  
Самаркандский государственный институт  
иностранных языков, докторант кафедры  
Гуманитарных наук и информационных технологий

#### **Аннотация**

*Данная статья посвящена идеям Фридриха Ницше о сверхчеловеке, исследованию его философии, влиянию его идей на философскую мысль.*

**Ключевые слова:** философия, Фридрих Ницше, сверхчеловек, Заратустра, «Так говорил Заратустра».

«Человек – это канат, натянутый между животным и сверхчеловеком, – канат над пропастью» это цитата из книги Фридриха Ницше «Так говорил Заратустра» [1]. Философия Фридриха Ницше в корне отличается от взглядов других философов его времени таких как Кант и Гегель [2]. Его философия полностью отворачивается от гуманизма и моральных норм в сторону отрицания Бога. На философию Ницше напрямую повлияли его жизненные трудности: болезни, одиночество, неприятие его идей современниками, и как следствие чего явилось сумасшествие, которым он страдал в конце жизни. Его книги позволяют увидеть мир совершенно под другим углом. Понятия морали у Ницше относительно. Его философия призывает к переоценке ценностей, сложившейся веками, нормы морали Ницше считает устаревшими и относительными. Идеи Фридриха Ницше оказали огромное влияние на философию XX века. В частности «идеи Фридриха Ницше» отредактированные под свои убеждения, после его смерти сестрой Элизабет которая была яркой антисемиткой пользовались популярностью в нацистской Германии. И только в 1967 году итальянские ученые опубликовали ранее недоступные работы без искажений [3].

Многие страницы работ или целые книги Семена Франка, Николая Бердяева, Мартина Хайдеггера, Мишеля Фуко, Жюль Делеза и других выдающихся философов посвящены анализу его наследия, полемике с его пророчествами, пронизаны неприятием его идей или восхищением ими.

Фридрих Ницше, немецкий философ, жизнь которого была полна контрастов ввел понятие *Übermensch*, что переводится как «сверхчеловек». Согласно Ницше, сверхчеловек — это человек, который превзошел ограничения человеческой природы и достиг более высокого уровня существования. Эта идея часто связана с отказом от традиционной морали и стремлением к индивидуализму. Идея сверхчеловека упоминается в ряде произведений Ницше, но наиболее полная концепция Сверхчеловека появляется в его книге «Так говорил Заратустра». Книга написана метафорическим языком и отличается от других философских произведений. На стиль Ницше повлияло его филологическое образование, поначалу его манера изложения мыслей кажется запутанной и бессистемной, но при повторном прочтении становится более очевидным поэтичность его языка.

Из-за афористического стиля изложения своих мыслей Ницше в произведении «Так говорил Заратустра» эти идеи все трактуют по-своему и огромное количество споров вызывают ключевые тезисы этого произведения (идеи Сверхчеловека, «вечного возвращения», смерти Бога («Бог умер») и «воля к власти»). Сверхчеловек у Ницше — это результат его морального и культурно-духовного совершенствования. Сверхчеловек возвышается над обычным человеком настолько, что тот становится для него не просто биологическим видом – он может создать новый эволюционный уровень «Что такое обезьяна для человека? Посмешище или мучительный позор. И тем же самым должен быть человек для сверхчеловека, — посмешищем или мучительным позором» [3]. Для сверхчеловека нет



цели господства и доминирования, а есть необходимость выхода за пределы своего бытия.

Ницше выделяет три ступени перехода к сверхчеловеку первая ступень это состояние «верблюда» – человек, нагруженный традициями и установками культуры, и традициями предыдущих поколений. Вторая ступень состояние «льва» – человек, отрицающий себя как «верблюда», то есть отказывающийся абсолютно от всего того, от чего он зависит. С момента превращения верблюда во льва и начинается эволюция человека в сверхчеловека. Эта стадия является в процессе эволюции предварительной ступенью и исчерпывается одним отрицанием. И следующая ступень состояние «ребенка» – человек, открытый для всего нового, чистый лист, сам создающий себе законы и управляющий своей волей. Этим и заканчивается весь процесс.

Идея сверхчеловека, сформулированная философом, все чаще проявляется в нашем современном мире. В последнее время во многих западных странах стал развиваться принцип – «человек, который сделал себя сам». Одной из отличительных особенностей данного принципа является эгоизм, индивидуализм, и воля к власти. Человек, который «создал себя сам», – это человек, поднявшийся от самых низов до самого высокого положения в обществе, благодаря упорной работе над собой, активному развитию своих качеств. Для того чтобы стать сверхчеловеком, необходимо обладать яркой индивидуальностью, нужно отличаться от других людей тем, что у тебя есть внутренний мир, порой не совпадающий с общепринятыми нормами поведения. Однако важно отметить, что идея Ницше о сверхчеловеке подвергалась резкой критике и часто рассматривается как проблематичная. Многие утверждают, что стремление к индивидуализму может привести к отсутствию сочувствия и пренебрежению благополучием других. Кроме того, отказ от традиционной морали может привести к обществу без морального компаса, где все идет своим чередом.

В целом, хотя концепция сверхчеловека Ницше может иметь некоторые достоинства с точки зрения личностного роста и самореализации, важно учитывать потенциальные негативные последствия преследования такого идеала. Крайне важно поддерживать баланс между индивидуализмом и общественным благополучием и признавать важность традиционной морали в формировании справедливого и равноправного гражданина общества.

#### *Литература:*

1. Ницше Ф. Так говорил Заратустра. [Электронный ресурс]: Электронная библиотека. Режим доступа: <http://lib.ru/NICSHE/zaratustra.txt>.
2. Гулыга А. В. Немецкая классическая философия // 2-е изд., испр. и доп. М.: Рольф, 2001. 416 с. 2. Ницше Ф. Н
3. Ницше, Фридрих. (2023, August 25). In *Wikipedia*.
4. Знаменский С.П., «Сверхчеловек» Ницше <https://www.nietzsche.ru/look/century/znamenski/>



SH.S.PIRSTIŇ SEMIOTIKA PÁNINIŇ RAWAJLANIWINA QOSQAN ÚLESİ

**Maksetova M.K.**

Tariyx ilimleriniŋ kandidati, docent  
Qaraqalpaq ma'mleketlik universiteti  
Telefon : + 998973561965

**Xojametova J.J.**

Filosofiya qániygeligi magistrantı,  
Qaraqalpaq ma'mleketlik universiteti  
Telefon : + 998941499298

**Резюме:** Стáтья посвящена о роли Ч.С.Пирса в развитии науки семиотики. Ч. С. Пирс дал характеристику основных семиотических понятий, таких как знак, значение знака, отношения между знаками.

**Summary:** The article is devoted to the role of C.S. Peirce in the development of the science of semiotics. C. S. Peirce characterized the basic semiotic concepts, such as sign, sign meaning, relationships between signs.

**Ключевые слова:** Ч.С.Пирс, семиотика, знак, символы.

**Keywords:** C.S. Pierce, semiotics, sign, symbols

Búgingi dúnyanıń ilimiy-filosofiyalıq kórinisi dinamik qásiyetge iye bolıp, bul sociallıq ómirdiń globallaşıp barıwı hár bir tarawdağı izertlewshilerden ózine tán máselelerdi sheshiwdi talap etpekte. Usı menen birge filosofiyalıq oylaw hár qashanğıdan da kóbirek zárúrlıkke aylanbaqta. Belgi hám simvolların mánis hám mazmunın túsindiriwshi – semiotika jámiyetlik pánler menen bir qatarda kompyuterlestiriw, telemexanika, telekommunikaciya, telefon, kosmik baylanıs joldası, avtomatik basqarıw sistemaları hám basqa tarawlarda úlken ahmiyetge iye.

Semiotikanı pán sipatında Evropada XIX ásirdiń aqırında payda boldı. Semiotika tiykarshısı usı atamanı pánde kiritgen Amerikalıq logika, filosofiya hám tábiyattanıwshi ilimlerinde belgili alım Sh.Pris esaplanadı. Pirs belgi qásiyetlerdi anıqlap, dáslepki belgiler (indeks, ikona, simvollar) birlespesin jarattı, yaǵnıy pánniń maqsetine qarap wazıypalar belgilendi [3, C.37-98]. Pirstiń semiotik ideaları júdá quramalı bolǵanlıǵı ushın onıń izertlewleri keyingi alımlar tárepinen ápiwayılastiril'ǵan.

Bugingi kúnde Pirs filosofıyanıń ilimiy miyrası keń orın almaqta. Sın pikir bildiriwshilerdiń pikirinshe semiotikanı úyreniwde filosoflar ishinde Pirsge múrájat etiw dástúрге aylandı. Pirs semiotikası nárese hám oylawdıń birgelikteǵı súwretleniw- semiozisge tiykarlanadı.

Sharlz Sanders Pirs (1839-1914) házirǵı zaman ulıwma semiotikanıń tiykarshısı. Pirsdı universal alım dep esaplaydı, sebebi bir qatar pánlerden izertlew jumısların alıp barǵan.

Pirstiń semiotikası kóbirek filosofiyaǵa, tiykarınan logika hám biliw teoriyasına tiykarlanadı. Jańa hám anıǵraq aytatuǵın bolsa Pirs semiotikası ulıwma gnoseologiya nızamların úyreniwge qaratılǵan.

Pirs semiotikası semiotik úshlikti payda etedi. Onıń qarasarı fenomenologiya, ontologiya hám gnoseologiya tiykarında rawajlanǵan hám sol sebepten antimaterialistik ruxta sanalǵanlıǵı sebepli tolıq úyrenilmegen. Songı jılları alımniń ilimiy miyrası izertleniwshiler tárepinen úyrenilmekte.

Pris pútkil álemde belgiler tımsalında kóz aldına keltiredi hám olardı kategoriyalarǵa ajratadı. Bizge belgili Aristotel 10, Kant 12 ontologiyalıq kategoriyalar barlıǵın aytıp ótken. Pirs olardı 3 universal kategoriyalar klasına ajratıladı. Kategoriyalardı alım birlemshi (Firstness), ekilemshi (Secondness) hám (Thirdness) dep ataydı [2, C.7.].

Birlemshi-bul bolmıs bir bólegi ol hesh násege baylanıslı emes, yaǵnıy óz-ózine barlıǵınsha kórine aladı. Bul kategoriya, ulıwma imkaniyatlar, spontanlıq, erkinlik, gárezsizlik sıyaqlı qásiyetlerge iye.

Ekilemshi birlemshiniń ekilemshi múnasebeti arqalı payda boladı. Bul mákán hám waqıttaǵı iskerlikke tásir jasaydı. Eger, birlemshi kategoriyalar ulıwma imkaniyatlıqqa ózlerine jámlew (yaǵnıy ózgermes), ekilemshi kategoriyalardıń processi dúnyaǵa tiyisli bolıp ózgeriw hám rawajlandırıwǵa tiykar boladı.

Úshlemshi kategoriyalar ekilemshi menen birlemshini baylanıstıradı. Bul kategoriyalar–yad, ádetler, zárúrlıklar, nızamlılıq, kommunikaciya, semiozis hám belgilerden quralǵan.



Pirstiń bolmıstađı múnásibetleri keyingı filosoflar pansemiotik dep esaplaydı. Sebebi, bul belgilerdiń úshlemshi kategoriyalar qatarına qosılğan bolsa da, biremshı hám ekilemshı kategoriyalardı hám semiotik tárepten bahalanadı. Yađnıy, onıń pikirinshe bul álemdi belgiler járdemide túsiniw múmkin hám bolmıstađı barlıq processler semiozi esaplanadı. Sana, oy hám hátte insan da semiotik tábiyatğa iye.

Hár qanday belgi hám, hár qanday pikir dúnyanıń birde-bir obykti hám basqa pikirleri menen baylanıslı, sonıń ushın biz ne haqqında oylasaqta, olardıń barlıǵında ótmish bar [2, C.8.]. Pirstiń pikirinshe, hár qanday pikir hám belgi, jáne de ómirimiz de pikirlerdiń ibarat, demek, insanda da belgi esaplanadı.

Pirs insan intuiciya arqalı biliv qábiletine iye emes, barlıq bilimlerde biremshı aladı, dep esaplaydı. Onıń pikirinshe insanda instrispekciya qábileti hám ol belgilersiz pikirley almaydı. Pirs jaratqan belgiler teoriyasında da usı pikirler jatadı. Ol adamlar bolmıstı tusinip jetiwge qiynalatuǵınlıǵın aytıp ótedi. Onıń pikirinshe, belgiler insan oylawı hám dúnyá ortasındaǵı universal medum esaplanadı. Belgiler jámiyetlik múlk eken, usı jámiyet olardıń áhmiyetine tiykarlanadı. Pirs filosofiyasındaǵı transcendentel princip induiciya emes, bálki jámiyet, haqıyqat ólshemi bolsa - jámiyetlik jámlespesi esaplanadı. Haqıqiy konvercional qásiyetke iye bolǵanında alım yamasa filosoftıń wázıypası bolmıs haqqındaǵı haqıqiy bilimlerde izlewge emes, bálki ol haqqındaǵı idealarğa anıqlıq kiritiwden ibarat.

Pirs modelinde belgi referentın–pikirler dúnyasında belgi ne zatğa túrtki beredi, bul processti eksPLICIT tárizdi tárıpleydi. Bunnan tısqarı, Pirs belgiliniń haqıqıyılıǵına mimikalıq háreketler qılıw ushın logikalıq tárepten “modellik” túsiniǵın ózlestiredi. Bunda ol modelliktiń úsh túri: aktualıq, zárúrlık hám imkaniyatları (gipotetik) tán aladı.

Bunnan tısqarı, Pirs belgilerdiń haqıqıyılıǵı mimikalıq háreketler qılıw ushın logikalıq “modallıq” tusiniǵın ózlestirdi. Bunda ol modallıqtıń úsh túri: aktualıq, zárúrlilik, hám imkaniyatlılıq (gipotetik) tán aladı. Bunnan tısqarı belgilerdi belgilerdiń óz referentına bolǵan múnásibeti, usılı atamalarda bólistiriw olardıń modallıǵın-“bolmısğa” qaraǵanda olardıń ashıq hám ashkaralıǵınsha sáwlelenedi. Insannıń usı waqıtta itibarı qaratilǵan obykti denotaciya qıladı, yađnıy denotat-súwretlewdiń qásiyetinde yađnıy predmet, tiykarınan nátiyje esaplanadı. Búgingi seziwler arqalı iyelengen, túsiniłgen nátiyjelere esapğa alınadı. Denotativ dáreje xabardıń tiykarǵı mazmunıń súwretlewde, konnotativ dárejede xabardıń qosımsha jaǵdayları yađnıy subyektiv hám jámiyetlik-tariyxıy jaǵdaylarda basqa tásirler arqalı payda bolǵan manilerdi súwretleydi [1, B.76]. G.Frege aldınǵı ómir súrgen logikalıq semantikada mazmun til kórinisinde (predmetli mazmunlı) alınǵan bolıp denotat delinedi [4, C.116]. Mánis bolsa kórinistiń pikirlik, onıń ózlestiriliwi bolsa sanada júz beredi. Pirstiń pikirinshe konnotaciya processi obyekt haqqındaǵı barlıq bilgenleri toplanıp, sezimlik hám túsiniwshilik basqıshqa ótıledi. Insandaǵı interpretanta bolsa joqarıdaǵı alınǵan bilimlerdeń kelesheǵı bolıp, onda insannıń jazıwǵa bolǵan pikiri, yamasa dúnyáǵa keltirmekshı bolǵan perzentlerdi názerde tutqan .

Pirs óz dóretiwshiliginde belgige qaraǵanda túrlishe pikirler bildirgen. Aytıp ótiw lazım, Pirs semiotikası belgini emes, balki semiozis processlerdi úyreniwge baǵıshlanǵan. Semiozis-belgilerdiń triadik iskerligi esaplanadı. Yađnıy bul iskerlik kognitiv qásiyetke iye bolıp, óz interpretatortıń bilim joqarılatıwǵa aldınǵa háreket qılıwǵa sebepshı boladı. Sol mánide semiotika-belgiler haqqındaǵı ápıwayı pán emes, túrli semiozislerdiń mánisin, tábiyatın hám hár túrliligin úyreniwshı tálimat esaplanadı [2, C. 5-32].

Ulıwma alǵanda Sh.S.Pirs dóretiwshiliginde semiotikanıń pán sıpatında rawajlanıwı, onıń keyingı rawajlanıwı ushın úlken úles qostı. Bizin pikirimizshe alımın miyrası tek biziń simvollar teoriyası haqqındaǵı bilimlerimizdi baytıp qoymastan, balki, dúnyaqarasımızdı rawajlandırıp, oylarımızdı, qabileterimizdi rawajlandıradı.

### Ádebiyatlar:

1. Аллаярова С. Фалсафий герменевтиканинг методологик жиҳатлари. Фалс.ф.номз. дисс. –Т.: Университет, 2010.
2. Нёт В. Критика и семиотика. –Кассель (Германия): Университет, 2001. Вып. 3/4.
3. Моррис Ч. Основания теории знаков // Семиотика / Под ред. Ю.С.Степанова. - М.: Мысль, 1983.
4. Фреге Г. Избранные работы. - М.: Гардарики, 1997.



ABDULLA AVLONIYNING “TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ”  
ASARINING QIYOSIY TAHLILI

**Abrorxon Asatulloev,**  
Falsafa fanlari doktori (PhD),  
Ta’lim sifatini nazorat qilish bo’lim boshlig’i,  
Guliston davlat pedagogika instituti,  
*abshah.uz1992@gmail.com*

**Annotatsiya:** Jamiyatda ma’naviy muhitni shakllantirishdagi ahamiyatli ta’sirchan kuch esa millat yoshlarining ta’lim-tarbiya sohasi bo’lib, uning naqadar muhimligini ma’rifatparvarlarning yetuk vakillaridan biri Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asaridagi quyidagi jumlar ham ta’kidlaydi: “Alhosisil, tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”, “Ilm insonlarning madori hayoti, rahbari, najotidur” deya aytgan fikrlari hamon o’z qadrini yo’qotgani yo’q.

Abdulla Avloniyning risola shaklidagi asaridan yosh avlod tarbiyasida axloqiy fazilatlarini shakllantirish uchun zarur bo’lgan axloq me’yorlarini tizimga solingan shaklda ekanligini ko’rishimiz mumkin bo’ladi. XX asrda milliy uyg’onish davri g’oyalar rivojida qanchalar ahamiyatga ega bo’lgan bo’lsa, XXI asrda Yangi O’zbekistonda Uchinchi Renessansni yaratishda ham o’ziga xos ahamiyatga ega bo’ladi.

**Kalit so’zlar:** “Turkiy guliston yoxud axloq”, ta’lim – tarbiya, ma’rifat, “Guliston”, axloq, jism va ruh uyg’unligi, fikr tarbiyasi, vatan, barkamol avlod tarbiyasi .

Ona vatanimizda O’zbekiston Respublikasi o’z mustaqil taraqqiyot yo’lining shonli 32 yilligini “Yangi hayot uchun, Yangi O’zbekiston uchun” shiori ostida eng ulug’ va eng aziz bayram sifatida katta tantana bilan nishonlandi. Bu davr mamlakatimiz tarixida zarhal harflar bilan bitilgan haqiqiy ma’nodagi buyuk bir davr bo’ldi.

Ayniqsa yoshlarga ta’lim – tarbiya berish, ilmi, malakali, kasbli qilib tarbiyalash, yoshlarning ma’naviyatini yuksaltirish, siyosiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish borasida o’tgan davr mobaynida ibratli ishlar amalga oshirildi. 1992 yilda “Ta’lim to’g’risida” gi mustaqil O’zbekistonimizda dastlabki qonunning qabul qilinganligi, 1997 yilda Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, 2016 yilda “O’zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to’g’risida”gi qonun, 2018 yilda “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qaror, 2020 yilda “O’zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to’g’risida”gi farmon, 2021 yilda “O’zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi qarorlarni qabul qilinib, hayotga tatbiq qilinganligi yuqoridagi fikrimizga misol bo’la oladi.

Shuning uchun ham buyuk ajdodlarimiz ilm-fanning qaysi sohasi bilan shug’ullanmasinlar ta’lim tarbiya masalalariga alohida e’tibor berganlar. Jumladan, Forobiyning “Fozil odamlar shahri”, Ibn Sinoning “Qush risolasi”, Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul haqoyiq”, Sa’diyning “Guliston”, Alisher Navoiyning “Mahbub ul qulub”, “Hayrat ul abror” kabi asarlar inson shaxsini axloqiy tarbiyasini tahlil etishga bag’ishlangan.

Mohiyat e’tibori bilan Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari ham shu guruhga kiradi.

Yurtimizda ta’lim-tarbiya haqida fikr yuritilar ekan, Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir” degan ma’noli so’zlarini eslaymiz.

Abdulla Avloniy o’zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asari yozilishi haqida quyidagi fikrlarni bildiradi. Asarda Sa’diyning “Guliston”idan andoza olganini bildirib o’tgan: “Turkiston maktablarida o’z shevamizda yozilmish mukammal “Axloq” kitobining yo’qligi, afrodi millatning shunday bir asarga tashna va muhtoj ekanligi, o’zum muallimlar jumlasidan, manga ham ochiq ma’lum o’ldi. Shuning uchun ko’p vaqtlar tajriba so’ngidan adibi muhtaram Shayx Sa’diy usulinda yozmakni, garchi og’ir ish bo’lsa ham, o’zimga muqaddas bir vazifa ado qiloroq va bu kamchilikni



arodin ko‘tarmakni munosib ko‘rdim”.

Muallif xush tarbiyani nimadan boshlamoq kerak? degan savol qo‘yadi va axloqni takomillashtirishdan! degan javobni berib axloqqa shunday baho beradi:

Axloq – Insonlarni yaxshilikka chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmduur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurgan kitobga axloq deyilur<sup>1</sup>. “Axloq” aslida, “xulq” so‘zining ko‘pligi. Xulq esa har kimda har xil bo‘ladi. Ammo bir umumiylik bor: har qanday xulqda fazilatlar ham mavjud, illatlar ham. Boshqacha aytganda, har bir kishida ezgulik ham uchraydi, qaysidir darajada razillik ham. Shuning uchun axloq tarbiya orqali takomillashadi, go‘zallashadi. Tarbiyaning maqsadi esa imkon qadar illatlar, razilliklardan xalos bo‘lib, fazilatlar va ezguliklarni yanada takomillashtira borishi lozim.

Buyuk ma‘rifatparvar tarbiya borasida jism va ruh uyg‘unligi g‘oyasini ilgari suradi. U bu ikkisini bir choponning avra (usti) va astari (ichi)ga o‘xshatadi. “Jism ila ruh ikkisi bir choponning o‘ng ila tersi kavidur. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponning ustini qo‘yib astarini yuvib ovora bo‘lmoq kavidurki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradur. Fikr tarbiyasi uchun mahkam va sog‘lom bir vujud kerakdur. Shuning uchun ota-onalar bolalari kasal bo‘lgan zamon beparvolik qilmay, tezlik ila tabib yoki do‘xtirga boqizmak kerak”<sup>2</sup>.

Ulug‘ ma‘rifatparvar tarbiyani kimlar tomonidan olib borilishi haqida fikr yuritar ekan shunday deydi: “Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur? degan savol keladur. Bu savolga, birinchi uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidur. Ikkinchi, maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidur”, -deb javob bersak, bir kishi deyurki, “qaysi onalarni aytursiz, bilimsiz, boshi paqmoq, qo‘li to‘qmok onalarni? O‘zlarida yo‘q tarbiyani qaydan olib berurlar”. Mana, bu so‘z kishining yuragini ezar, bag‘rini yondirar. Otasiga nima dersiz, desak, qaysi ota? To‘ychi, uloqchi, bazmchi, do‘mbirachi, karnaychi, surnaychi, ilm qadrini bilmagan, ilm uchun bir pulni ko‘zlari qiymagan, zamondan xabarsiz otalarni aytursizmi? Avval o‘zlarini o‘qitmak, tarbiya qilmak lozimdur”, - der. Mana bu so‘z misoli hayrat daryosiga g‘arq qilur.

Mudarrislarga na dersiz desak, qaysi mudarris? Matlablari osh, maqsadlari chopon, darslari beintixon, isloh yaqinida yurmagan mudarrislarni aytursizmi? Ular o‘z vazifalarini bilub, nafslaridan kechub, zamonga muvofiq ravishda darslarini isloh qilub, imtihon birla o‘qitmaklari lozimdur,- der.<sup>3</sup>

Vatan. Har bir kishining tug‘ulub o‘skan shahar mamlakatini shu kishining vatani deyilur. Har kim tug‘ulgan, o‘sgan yerini jonidan ortiq suyar. Hatto bu vatan hissi-tuyg‘usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o‘z vatanidan–uyuridan ayrilsa, o‘z yeridagi kabi rohat-rohat yashamas, maishati talx bo‘lub, har vaqt dilining bir go‘shasida o‘z vatanining muhabbati turar.

Biz turkistonlilar o‘z vatanimizni jonimizdan ortiq suydigimiz kabi, arablar arabistonlarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan zièda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o‘z vatanlarini tashlab hijrat qilurlar edi.

Bobolarimiz “Kishi yurtida sulton bo‘lguncha, o‘z yurtida cho‘pon bo‘l”, -demishlar.

Men ayblik emas, ey vatanim, tog‘larim,

Bevaqt tashlab ketdim, oyo bog‘larim.

Hijron qilodur meni judolig‘,

Do‘ndi g‘ama ro‘z –u shab-u chog‘larim.<sup>4</sup>

Bugungi kunda, fan-texnikaning jadal taraqqiyoti sharoitida har bir davlat o‘z istiqbol rejalarini belgilar ekan, kelajakda ushbu rejalarini amalga oshiruvchi qobiliyatlarni rivojlantirishga, intellektual salohiyatini yuksaltirishga, ma‘naviy boyitishga alohida e‘tibor berish davr talabidir. Shu sababli mamlakatimizda barkamol avlodni voyaga yetkazishda hamda ularning haq-huquqlarini muhofaza qilishda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2022 yilgi davlat budjetining 60 foizi ijtimoiy sohalarga yo‘naltirilgani ham kelajagimiz vorislariga g‘amxo‘rlikning yorqin ifodasidir. Zero, yoshlar bugungi niyatlarimizni ro‘yobga chiqaradigan, mamlakatimiz taraqqiyotini ta‘minlaydigan, har bir sohada o‘z iste‘dodini to‘la-to‘kis namoyon etadigan avlod sifatida shakllanishi zarur.

Barkamol avlod tarbiyasi tushunchasi falsafiy, siyosiy ma‘no va mazmunga ega bo‘lib, ijtimoiy

1 Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: 2004. –B. 1-2.

2 O‘sha asar. –B. 8.

3 Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: 2004. –B. 6-7.

4 Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: 2004. –B. 30-31.



siyosatning asosiy elementlari, avvalo, siyosiy, ijtimoiy institutlararo munosabatlar jarayonlardagi tub islohotlarni o‘z ichiga oladi.

Barkamol avlod va yangi avlod kadrlari uyg‘un tushuncha bo‘lib, bunda:

- 1) yangi inson mustaqil, yangicha tafakkur va ong sohibi hisoblanadi;
- 2) yakka hukmron mafkura ta‘siridan xalos bo‘lgan;
- 3) milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalanib hozirgi zamon ilm-fani yutuqlari asosidagi yangi milliy ta‘lim standartlari asosida bilim olgan, qat‘iy tayyorlangan yoki malakasini oshirgan;

4) barkamol yangi avlod demokratik tamoyillarni qadrlaydigan, yuksak salohiyatga ega, zamonaviy ilm-fan va texnologiya yutuqlari bilan qurollangan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini oshirishga amaliy hissa qo‘shish mas‘uliyatni chuqur anglab yetgan yangi qatlamdir.

Barkamol avlod tarbiyasida ikki tushuncha bir-biri bilan doimo uyg‘un ishlatiladi:

1. Ta‘lim tushunchasi shaxsning ma‘rifiy va tarbiyaviy darajasini orttirish orqali uning rivojlanishini ta‘minlash maqsadida o‘rgatuvchi bilan o‘rganuvchilar o‘zaro birgalikda amalga oshiradigan didaktik faoliyat. Shaxsning aqliy taraqqiyotini ta‘minlash maqsadida ko‘riladigan didaktik chora-tadbirlar tizimidir.

2. Tarbiya tushunchasi, yangi avlod kishilariga katta avlodning ijtimoiy tarixiy tajribasini berish orqali rivojlanishini ta‘minlovchi ijtimoiy funktsiya, ijtimoiy institutlar ta‘siri ostida inson sub‘ektiv-shaxsiy va ma‘naviy dunyosini shakllantirish, qaror toptirish, boyitish va takomillashtirishning aniq maqsadga yo‘naltirilgan, tizimlashtirilgan va ongli jarayoni.

Xulosa qilib aytganda, tarbiya-ta‘lim bilan o‘zaro jips bog‘langan ijtimoiylashtirishning asosiy bo‘g‘ini, ta‘lim tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ota –bobolarimiz qadimdan bebaho bo‘lyuk bo‘lmish ilmu-ma‘rifat, ta‘lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan. Zamonaviy taraqqiyot talablariga to‘liq javob beruvchi ta‘lim tizimini takomillashtirish maqsadida bir qator qonun, qaror va farmonlar qabul qilindi. Ularning mohiyati barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan bo‘lib, unda quyidagi vazifalar belgilab qo‘yilgan. Xususan yosh avlodni ma‘naviy-axloqiy tarbiya asosida yetuk qilib tarbiyalash, talabalarining ma‘naviyatini milliy g‘oya asosida tarbiyalash va shakllantirishda ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan keng va samarali foydalanish, yoshlarda Vatanga va xalqqa muhabbat, yurt farovonligi uchun kurashish, insonparvarlik, o‘zlikni anglash, milliy g‘urur, milliy iftixor, o‘zga millat kishilari va ularning qadriyatlarini hurmat qilish kabi fazilatlarni tarbiyalash, yoshlarda vijdon erkinligi, bilimdonlik, axloqlilik, jismoniy yetuklik, mustaqil fikrni kamol toptirish kabi ta‘lim tarbiya masalalari ustuvor vazifa sifatida amalga oshirilmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: 2004. –B. 96.
2. А. Авлоний. Бурунги ўзбек вақтли матбуотининг тарихи. Китобда: Миллий уйғониш. Т.: Университет, 1993.
3. Балдауф И. XX аср ўзбек адабиётига чизгилар. – Тошкент: Маънавият, 2001.
4. Долимов У. Авлоний – методист олим// Миллий уйғониш. –Т.: Университет, 1993.
5. Зиё Саид. Ўзбек вақтли матбуоти тарихига оид материаллар. Танланган асарлар (нашрга тайёрловчи Шерали Турдиев).-Тошкент: Ўзбекистон, 1974.



**YANGI O‘ZBEKISTON VA UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI  
YARATISHDA ABDURAHMON TOSHKANDIY VA ABDULLA AVLONIY  
AXLOQIY QARASHLARINING AHAMIYATI**

**Abrorxon Asatulloev,**

Falsafa fanlari doktori (PhD),

Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘lim boshlig‘i,

Guliston davlat pedagogika instituti,

*abshah.uz1992@gmail.com*

**Annotatsiya:** XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashab ijod etgan Abdurahmon Toshkandiy va Abdulla Avloniyning insonparvarlik va umuminsoniy ruh bilan sug‘orilgan ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-axloqiy qarashlari, ulardagi adolat, bag‘rikenglik, yaxshilik, ezgulik, mehr-muruvvat, ilm-fan va kasb-hunarni egalash kabi qimmatli fikrlari hozirgi mustaqillik sharoitida ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q.

Abdurahmon Toshkandiy va Abdulla Avloniyning risola shaklidagi asarlaridan yosh avlod tarbiyasida axloqiy fazilatlarni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan axloq me‘yorlarini tizimga solingan shaklda ekanligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. XX asrda milliy uyg‘onish davri g‘oyalar rivojida qanchalar ahamiyatga ega bo‘lgan bo‘lsa, XXI asrda Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessansni yaratishda ham o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘ladi.

**Kalit so‘zlar:** Ma’rifatchilik, jadidchilik, mustaqillik, Uchinchi Renessans, odil va fozil podsho, “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari”.

XIX asrning oxiri XX asrning boshida Turkiston madaniyati qator talantli olim, sayyoh, shoir, pedagog, jurnalistlarni yetishtirib chiqardi, ular xalqimizning umumiy madaniyati rivojlanishiga juda katta ta’sir ko‘rsatdilar.

Yevropa madaniyati yangiliklari, Yaqin Sharq mamlakatlaridagi o‘zgarishlar Turkiston madaniyatida yerli xalqning mustamlakachilik siyosati, kamsitilishiga qarshi ma’rifatchilik harakatini kuchaytirib yubordi. U asosan xalqni yangi madaniyat, ma’rifatga chaqirishga, millatni uyg‘otishga, yangilanayotgan ma’naviyatni egallashga yo‘naltirilgan edi. Asta-sekin ma’rifatchilikdan jadidchilik o‘sib chiqdi va u ma’lum darajada siyosiy masalalarni olg‘a sura boshladi. Yangi ta’lim-tarbiya, yangi maktab, yangi maorif, uni boshqarish, madaniy targ‘ibot, tashkilotchilik masalalari asosiy o‘ringa ko‘tarildi. Yangiliklarga asoslangan holda rus va eski feodal maorifdan farq qiluvchi fikr-g‘oyalar oldinga surildi, ular yerli matbuot, turli kitoblar orqali keng targ‘ib etildi. Bu madaniyatdagi mustamlakachilikka qarshi mustaqillikka xalq ongini oshirish, o‘z ahvolini yaxshilashga intilishning ko‘rinishlaridan edi<sup>1</sup>.

Bugungi O‘zbekiston — kechagi O‘zbekiston emas. Ha, haqiqatan ham, shunday: bugungi O‘zbekiston kechagi O‘zbekiston emas. Sal oldingi tarixga nazar tashlaylik. XIX asrning ikkinchi yarmida milliy mustaqilligimizdan ajraldik. Jadidlar qatag‘on qilingandan boshlab ilm-fan sohasida ham turg‘unlik davri boshlandi. Chunki ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, diniy, mafkuraviy tazyiqlar shunga majbur qilar edi. Hech kim o‘z fikrini ochiq-oydin bayon qila olmas, bayon qilganlarning, esa, boshiga kulfat yog‘ilar edi. Ushbu siyosat tufayli qanchadan qancha olimlar, shoiru yozuvchilarimiz “tug‘ildiyu, bo‘g‘ildi”.

Shukrki, mustaqillikka erishganimizdan keyin bunday noxush holatlarga barham berildi. Ajdodlarimiz merosi tiklana boshladi. Barcha sohalarda xalqchil islohotlar olib borildi. Xalqda ruhiy ko‘tarilish, kelajakka ishonch paydo bo‘la boshladi. Bu holat “milliy tiklanish”, deya nom oldi. Bugungi kunda esa, milliy tiklanishdan milliy yuksalish bosqichiga o‘tdik. Endi, albatta, qandaydir o‘zgarish bo‘lishi lozim. Chunki biz ikkita Renessansni yaratgan buyuk ajdodlarning vorislarimiz.

Buni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev Uchinchi Renessansga qadam qo‘yish bosqichi, ya’ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratish bosqichi, deb nomlab, quyidagicha ta’rifladi: “Xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘sh urgan hozirgi zamonda O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish — Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo‘ladi. Chunki

<sup>1</sup> Маънавият юлдузлари. Масъул муҳаррир: М.М.Хайруллаев. Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1999., -Б. 321.



bugungi O‘zbekiston — kechagi O‘zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas”.

Ushbu Uchinchi Renessans davrida Ahmad Donish, Berdaq, Feruz, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Bayoniy, Avaz O‘tar kabi olim, shoirlar o‘z davrining muhim masalalarini ko‘tarib chiqdilar va xalqni ilm-fan, ma‘rifatni egallashga undadilar.

Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurahmon Toshkandiy, Fitrat, Cho‘lpon, Sadridin Ayniy, Hamza kabi iste‘dod egalari jadidchilik g‘oyalarini olg‘a surish va targ‘ib qilish sohasida bayroqdor bo‘lib tanildilar. Turkistonning o‘z rivojlanish yo‘lini targ‘ib etishda jonbozlik ko‘rsatdilar. Mustaqilligimiz tufayligina millatimiz va jahon madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan Sharq uyg‘onish davrini ilmiy, xolis o‘rganish, baholash imkoni ochildi.

Abdurahmon Toshkandiy o‘z asarida yosh avlodni uyg‘otish uchun shularni keltirib o‘tadi: “Hayotning o‘tgan qismi o‘tib ketdi, uni qaytarish imkonsiz. Qancha qolgani ham g‘ayb pardasi ortiga berkitilgan. Kecha va erta o‘rtasidagi vaqt sizning qo‘lingizdagi vaqtdir. Umrni ayni damda deb bilmoq kerak va o‘z ishlaringizni shu zamon qilmoq kerak”<sup>1</sup>. Shuningdek, ma‘rifatparvar “Me‘yor ul-axloq” asarining ikkinchi xissasining 7 bobida inson hayotining ranginligi va Alloh taoloning ajriga noil bo‘ladigan 32 sifatning tahlilini berib o‘tganini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

Bugungi yangi O‘zbekistonda ham ana shunday muhit yaratilayotir. Yoshlar ijodda ham, ilmda ham, tarbiyada ham peshqadam qilib tarbiyalanmoqda. Ular tarbiyasida hal qiluvchi o‘rin tutadigan bog‘chalar va maktablar tizimida ulkan o‘zgarishlarga guvoh bo‘lib turibmiz. Prezidentimiz boshchiligida “bola tug‘ilganidan boshlab, 30 yoshgacha bo‘lgan davrda uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o‘rin topishi uchun ko‘mak beradigan yaxlit va uzluksiz tizim yaratish, mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadga erishish yo‘lida yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni ta‘minlash muhim”ligiga e‘tibor qaratilmoqda.

Abdurahmon Sayyoh va Abdulla Avloniylarning ijtimoiy-axloqiy qarashlari ularning asarlarida izchil, mantiqiy bir-biriga bog‘liq holda bayon qilingan. Lekin ulardan qat‘iy nazar, ularning nazmiy va nasriy asarlarida axloq tushunchalari va xuld-odob qoidalarining ko‘p jihatlari aks etganligi bilan ajralib turadi. Mutafakkirlarning asarlarida adolat va tenglik tushunchasiga keng o‘rin beriladi. Buning boisi shuki, Jadid ma‘rifatparvarlari yashagan zamonda zulm, istibdod, sitam va zo‘ravonlik kuchaydi, oddiy xalqning ahvoli keskin yomonlashdi. Turkiston ma‘rifatparvarlari bunday sharoitda adolatsizlik, yomonlik, fuqarolarni ezishni keskin tanqid qilibgina qolmasdan, balki amaldorlar, boylar, mustamlakachilar va uning yaqinlarini odil bo‘lishga, mazlumlarga ozor bermaslikka da‘vat qildilar.

Abdurahmon Sayyoh va Abdulla Avloniylar ko‘tarib chiqqan yana bir masala odil va fozil podsho g‘oyasidir. Bu mavzu aslida yangi bo‘lmasdan insoniyatni azaldan qiziqtirib kelgan. Ular o‘z salafari singari odil podsho orqali o‘z orzu-umidlarini, mukammal jamiyat to‘g‘risidagi fikrlarini ilgari surdilar, zolim va johil hukmdorlarning yaramas odatlarini qoraladilar.

Umuman olganda, har bir jamiyat adolatli va farovon jamiyat qurishga intiladi. Asrlar davomida kishilar adolat uchun kurashgan, mislsiz qurbonlar berilgan. Bizning nazarimizda, adolat va uning tantanasi uchun kurash g‘oyasi hozir ham o‘zining tarbiyaviy ahamiyatini yo‘qotmasdan kelmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Biz yangi ozod jamiyat, huquqiy davlat qurishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, adolat tamoyilini ustuvor vazifa sifatida e‘tirof etamiz. Va hech qanday kuch bizni bu yo‘ldan ortga qaytara olmaydi”<sup>2</sup> - degan edi.

Abdurahmon Sayyoh va Abdulla Avloniylar insonning eng yaxshi fazilatlaridan biri insonparvarlikka ham katta e‘tibor berganlar. Adolat singari, insonparvarlik uchun kurashib kelganlar.

Xulosa shuki, Renessansning tayanch ustunlari bo‘lmish biz — pedagoglar, tarbiyachilar, o‘qituvchi, ziyolilar hamda ota-onalar bunday imkoniyat va shart-sharoitlardan foydalanib, ma‘naviyati yuksak avlodni tarbiyalashimiz va iymonni qaror toptirish choralarini ko‘rishimiz kerak. Avvalo, har bir shaxs, ayniqsa, yosh avlodni Uchinchi Renessans barpo etilishiga ishonitirishimiz kerak.

Bugun Yangi O‘zbekistonda “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” bosh g‘oyasiga

1 Abdurahmon Sayyoh (Abdurahmon Sayyoh Toshkandiy-Me‘yor ul-axloq. G‘ulom Hasan Orufjonov matbaasi. Toshkent, 1912) – B. 145.

2 Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30 yillik bayramiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 31.08.2021.



tayanib, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish vazifasi qo‘yilgan ekan, uni bajarish uchun birgina rahbar, pedagog yoki tarbiyachi emas, balki shu Vatan barchamizniki, deya ko‘nglida vatanparvarlik, xalqparvarlik, insoniylik fazilatlarini mujassam, iymon-e‘tiqodi butun bo‘lgan har qanday shaxs targ‘ibotchi bo‘lishi lozim.

To‘g‘ri, biz Uchinchi Renessansni bir yilda, besh yilda, o‘n yilda amalga oshiramiz, deb bong urmaymiz, lekin mana shu Renessansni yaratadigan avlodni voyaga etkazishga kuchimiz ham, qudratimiz ham, imkoniyatimiz ham yetarli. Shunday ekan, bizdan faqat mehnat va ta‘lim-tarbiya samaradorligini oshirish talab qilinadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. ی دن کشات ح ای س نام حر ل ادب ع – ۱۹۱۲، دن کشات . ی ع ب ت م ف و ن ا ج ف ر آ ن س ح م ال غ . ق ال خ ال ا ر ای م ع .  
(Abdurahmon Sayyoh Toshkandiy-Me‘yor ul-axloq. G‘ulom Hasan Orufjonov matbaasi. Toshkent, 1912) – B. 170.

2. Маънавият юддузлари. Масъул муҳаррир: М.М.Хайруллаев. Т.: А.Қодирий номидаги халк мероси нашриёти, 1999., -Б. 321

3. Asatulloev, A., & Sayyoh, A. (2022). SOCIO-ETHICAL VIEWS OF ABDURAHMON TASHKENDI AND THE CONTENT OF THE WORK ON ‘MEYOR UL-AHL’ (AXLOQ ME‘YORLARI). *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(10), 218-224.

# ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 1-ҚИСМ

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусахҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.10.2023

**Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000